www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

GOSPITAL TA'LIMNING BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA MASALA YECHISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Xo'janazarova Lolaxon Komilovna

Qo'ziyev Murodjon To'ranazarovich

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi Farg'ona viloyati filiali pedagog xodimlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada gospital ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarga matematika darslarida masalalar yechishda soddalashtirib o'rgatish borasida so'z borgan. Maqola davomida masalar yechishda turli xil metodlar va tasniflar keltirib o'tilgan. Pedagoglar ushbu maqoladan o'z faoliyatlarida qo'llashlari mumkin.

Kalit so'zlar: Ta'lim, Mehrli maktab, islohot, gospital, pedagog, matematika, metod, tarbiya, usul, o'quvchi, arifmetik amal, masala, individual.

Ta'limni tubdan isloh qilishning ajralmas va muhim qismi hisoblangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, amaliyotga joriy qilinishi mumkin bo'lgan yo'l-yo'riqlar yangicha usullar orqali mutaxassislar tomonidan ma'lum tizim asosida o'rgatilishi lozim. Jahon ta'limi tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyoti ta'limning takomillashishi va taraqqiy qilishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etadi. Ana shunday keng ko'lamli islohotlardan biri 2022-yilning 5-may sanasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ilk marotaba gospital maktab Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi Markazida "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi tashkil etildi.

Gospital ta'lim - uzoq muddatli davolanayotgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasasiga bora olmaydigan bolalarni o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq pedagogikaning bo'limidir. Gospital pedagogikasi pedagogikaning bir qismi bo'lib, o'z e'tiborini o'quvchilarning alohida toifasiga — uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarga qaratadi.

Kasallik tufayli organizmida noqulayliklar his qilayotgan, toliqqan o'quvchi boshida o'qishga uncha ham qiziqish bildirmasligi mumkin. Shunday paytda gospital pedagog "O'yin terapiya" metodikasidan foydalanib uni ta'limga jalb qila oladi. Bu o'yinlar ba'zan jamoaviy o'yinlar bo'lsa, ba'zida esa yakka holda (individual) o'ynaydigan bo'lishi mumkin. Bu albatta pedagogning mahoratiga bog'liq. Tashqaridan qaraganda bola xuddi o'yin bilan mashg'uldek bo'lib ko'rinsada, aslida u o'ynab o'rganayotgan yoki o'rganishga qiziqtirilayotgan bo'ladi. Bunday usul o'quvchilarda jamoada ishlash, kommunikativlik kompitensiyalarini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Matematika kursi asosiy kattaliklar va geometriya elementlari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Ular imkoniyat darajasiga ko'ra o'quvchilarning son, arifmetik amallar va matematik munosabatlar haqidagi tushunchalarni yuqori darajada o'zlashtirishiga yordam bera borib, arifmetik bilimlar tizimiga qo'shiladi.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

Gospital maktabning boshlang‘ich sinflarida matematikani o‘qitishga haftasiga 2 soatdan vaqt ajratiladi. O‘quv materialini sinflarga taqsimlashda o‘rganilayotgan sonlar va ular bilan arifmetik amallarni bajarish doirasi asta - sekin kengaytirib borishi nazarda tutuladi. 1-sinfda - 0 dan 100 gacha bo‘lgan sonlarni raqamlash, 100 ichida sonlarni xonadan o‘tmasdan qo‘shish va ayirish; 2-sinfda - 0 dan 100 gacha bo‘lgan sonlar, 100 ichida sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish va ayirish, jadval ichida ko‘paytirish va bo‘lish; 3-sinf - 1 dan 1000 gacha bo‘lgan sonlar, to‘rt arifmetik amal; 4-sinfda - 1 dan 1 000 000 gacha bo‘lgan sonlar, to‘rt arifmetik amal kabi mavzular qaraladi. Birinchi sinfda o‘quvchilar ikki o‘nlik ichidagi, ya’ni 1 dan 20 gacha bo‘lgan sonlarning nomlari bilan tanishadilar. Bu esa xususan o‘quvchilarda narsalarni sanash malakasini hosil qilish uchun qo‘llaniladi.

Gospital ta’limning boshlang‘ich sinflarida matematikani o‘qitish umumiy sistemasida masalalar yechish samarali mashq turlaridan biridir. Masalalar yechish bolalarda avvalo mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish ularning rejada berilgan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlarida favqulotda muhim ahamiyatga ega. Masalan, agar biz qo‘shish haqida to‘g‘ri tushuncha shakllantirishni istasak, buning uchun bolalar yig‘indini topishga doir yetarli miqdorda sodda masalalarni deyarli har gal to‘plamlarni birlashtirish amalini, bajarib yechishlari zarur. Shunday qilib, masalalar konkret material bo‘lib, ular yordamida bolalarda yangi bilim vujudga keladi va mavjud bilimlar tadbiq qilinishi jarayonida mustahkamlab boradi. Masalalar bilimlarni shakllantirishda konkret material bo‘lgani holda nazariyani amaliyot bilan, o‘qitishni turmush bilan bog‘lab olib borish imkonini beradi. Masalalar yechish bolalarda kundalik hayotda har bir kishi uchun zarur bo‘lgan amaliy uquvlarni vujudga keltiradi.

Gospital ta’limning boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni qo‘llash usullarini ishlab chiqish, dastur materiallariga mos matnli masalalarni o‘rganishning samarali usullarini aniqlash yangi pedagogok texnologiyalardan foydalanib masala yechishni amalga oshirish yo‘llarini izlashdan iborat.

Turmushda sonlar bilan bog‘liq bo‘lgan cheksiz ko‘p hayotiy vaziyatlar vujudga keladiki, bu sonlar ustida turli arifmetik amallar bajarish talab qilinadi. Bular masalalardir.

Masalan: 3-sinfning matematika darsligida 77-sahifa 63-mavzu 8-topshiriqda quyidagi masala berilgan.

Bir shisha sutning massasi 800 gramm, yarim shisha sut esa 450 gramm massaga ega. Bo‘sh shishaning massasini toping?

Bu masalani yechish uchun bolalarga bo‘sh shishaning massasini topish uchun bilamiz bir shisha sutda ham, yarim shisha sutda ham shishaning massasi bir xil bo‘ladi. Faqat sutning massasi o‘zgargan. Shuning uchun biz 800 grammdan 450 grammni ayiramiz. Natijamiz 350 grammni tashkil etadi. Bu ana shu shishani ichidagi sutning yarmi. Demak, 350 grammni 2 ga ko‘paytirsak. Bir shishada qancha sut borligini aniqlaymiz. Bir shishaga 700 gramm sut sig‘ishini aniqlab oldik. Bir shishadagi 800 gramm sutdan 700 grammni ayirsak 100 gramm shishani massasi hosil bo‘ladi. Demak, shishamizning massasi 100 grammga teng.

Yechish: 1) 800g-450g=350g

2) 350g•2=700g

3) 800g-700g=100g

Javob: Shishaning massasi 100 gramm.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

Ta’lim maqsadlarida ko‘pincha obstrakat vaziyatlardan foydalaniladi va muhim masalalar deb ataluvchi masala hosil qilinadi.

Har bir masalada shart va savol bo‘ladi. Masala shartida berilgan sonlar orasidagi va berilgan sonlar bilan izlanayotgan sonlar orasidagi bog‘lanish ko‘rsatiladi, bu bog‘lanishlar tegishli arifmetik amallarni tanlashni belgilab beradi. Savol esa qaysi son izlanayotgan son ekanligini bildiradi. Masalani yechish bu masala shartida berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog‘lanishni ochib berish va bu asosda arifmetik amallarni tanlash, keyin esa ularni bajarish hamda masala savoliga javob berish demakdir.

Hayotiy vaziyatdan arifmetik amallarga o‘tish turli masalalarda berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi turli bog‘lanishlar bilan belgilanar ekan.

Masalalarning turlari haqidagi masalaga to‘xtalamiz: hamma arifmetik masalalar ularni yechish uchun bajariladigan amallar soniga qarab sodda va murakkab masalalarga bo‘linadi. Yechilishi uchun bitta arifmetik amal bajarilishi zarur bo‘lgan masala sodda masala deyiladi. Yechilishi uchun bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta ular bir xil amal bo‘lishidan qat’iy nazar amaliy bajarish zarur bo‘lgan masala murakkab masaladir. Sodda masalalarni qanday amal yordamida yechilishiga qarab (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish bilan yechiladigan sodda masalalar) yoki ularning yechilashi davomida shakllantiriladigan tushunchalarga bog‘liq ravishda turlarga ajratish mumkin. Murakkab masalalar uchun ularni ishga foydasi tegadigan qilib bunday ma’lum gruppalarga klassifikatsiyalashning yagona asosi yo‘q.

Masalalar yechish jarayonining o‘zi ma’lum metodika o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga ancha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki u aqliy operatsiyalarni analiz va sintez, konkretlashtirish va abstraklashtirish, taqqoslashi, umumlashtirilishi talab etiladi. Masalan, o‘quvchi istalgan masalani yechayotganida analiz qiladi, savolni masala shartida ajratadi, yechish rejasini tuzayotganida sintez qiladi, bunda konkretlashtirishdan (masala shartini hayolan chizadi) so‘ngra abstraklashdan foydalanadi (konkret situatsiyadan kelib chiqib arifmetik amalni tanlaydi) biror bir turdagi masalalarni ko‘p marta yechish natijasida o‘quvchi bu turdagi masalalarda berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog‘lanishlar haqidagi bilimni umumlashtiradi, buning natijasida bu turdagi masalalarni yechish usuli umumlashtiriladi. Bolalarni masala yechishga o‘rgatish – bu berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog‘lanishni aniqlashni va buning asosida arifmetik amallarni bajarishni o‘rganish demakdir. Masalalarni yechish o‘quvida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan markaziy qator berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog‘lanishni o‘zlashtirishdir. Bolalarning masalalar yecha olish o‘quvlari va bu bog‘lanishlarni qanchalik yaxshi o‘zlashtirganliklariga bog‘liqdir.

Masalalar ustida ishlash o‘quvchilarni avval bir turdagi masalalarni yechishga, so‘ngra boshqa turdagi masalalarni yechishga, so‘ngra boshqa turdagi masalalarni yechishga majburlashga olib kelinishi kerak emas. Uning asosiy maqsadi o‘quvchilarni turli hayotiy vaziyatlardagi berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi ma’lum bog‘lanishlarni ularni murakkablashib borishini ko‘zda tutgan holda aniqlay olishga o‘rgatishdir. Bunga erishish uchun o‘qituvchi bu turdagi masalalarni yechishni o‘rgatish metodikasida ma’lum maqsadlarni ko‘zlaydigan bosqichlarni ko‘zda tutish lozim. Birinchi bosqichda o‘qituvchi ko‘rilayotgan turdagi masalalarni yechishga tayyorgarlik ishini olib boradi. Bu bosqichda o‘quvchilar mazkur masalalarni yechishda tegishli amallarni tanlash uchun asos bo‘ladigan bog‘lanishlarni o‘zlashtirishlari lozim. Ikkinchi bosqichda o‘qituvchi ko‘rilayotgan turdagi masalalarni yechilishi bilan o‘quvchilarni tanishtiradi. Bunda o‘quvchilar berilgan sonlar va noma’lum son orasidagi bog‘lanishni aniqlash, buning asosida arifmetik amallarni tanlashni o‘rganadilar, ya’ni masalada ifodalangan konkret, vaziyatdan tegishli arifmetik amalni tanlashga o’tishni

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

o‘rganadilar. Bunday ishlarni olib borish natijasida o‘quvchilar ko‘rilayotgan turdagi masalalarni yechish usuli bilan tanishadilar. Uchinchi bosqichda o‘qituvchi ko‘rilayotgan turdagi masalalarni yechish uquvini shakllantiradi. O‘quvchilar bu bosqichda ko‘rilayotgan turdagi istalgan masalani uning konkret mazmunidan qat’iy nazar yechishni o‘rganishlari kerak, ya’ni bu turdagi masalalarni yechish usullarini umumlashtirishlari lozim. Yuqorida qayd qilingan bosqichlar ustida ishlash metodikasini mufassalroq qarab chiqamiz. U yoki bu turdagi masalalarni yechishga tayyorgarlik ko‘rishi arifmetik amallarni tanlashda berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi qanday bog‘lanishning tayanishga bog‘liq. Shunga muvofiq ravishda maxsus mashqlar o’tkaziladi.

Ko‘p hollarda – masalalar yechishga qadar to‘plamlari ustida amallar bajaradi. Masalan, ko‘p sodda masalalarni yechilishi bilan tanishtirish oldidan to‘plamlar ustida amallarga doir mashqlar berish lozim. Bunda to‘plamlarning elementlari konkret predmetlar bo‘lishi kerak (cho‘plar, qog‘ozlar, qo‘yilgan geometrik figuralar, rasmlar va hokazolar).

Ayirishga doir masalalarni yechishda to‘plamning bir qismini ajratish ko‘paytirishda teng sonlar to‘plarini birlashtirish, bo‘lishda to‘plamni teng sonli to‘plamlarga ajratish tayyorgarlik ishi bo‘ladi.

Arifmetik masalalar kattalikdan hajm, vaqt va boshqalar bilan bog‘langan, shuning yoki bu masalaga yangi kattalik bilan tanishtirish kerak. Bundan keyingi ishlarda foydalanish uchun ba’zi kattaliklarni bolalar ayrim daftarga yozib borishlari foydali bo‘ladi.

Murakkab masalalarni yechish qator sodda masalalarni yechishga keltiriladi, shuning uchun murakkab masalalarni yechishga tayyorgarlik tegishli sodda masalalarni yechishga o‘rgatish bo‘ladi. Masalaning har bir, ayrim turi ustida ishlash o‘ziga xos maxsus tayyorgarlik ishini talab qiladi, bu haqda har bir turdagi masalalarni yechish metodikasini qaralayotganda aytiladi. Tayyorgarlik ishlarini ko‘zda tutgan holda bolalarni ko‘rilayotgan turdagi masalalarning yechilishi bilan tanishtirishga o’tish mumkin.

Masalani yechishga o‘rgatishning asosiy bosqichlari: Masalalar yechishga o‘rgatishda quyidagi bosqichlarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir.

1-bosqich-masala mazmuni bilan tanishtirish;

2-bosqich-masala yechimini izlash;

3-bosqich-masalani yechish;

4-bosqich-masala yechimini tekshirish.

Ajratilgan bosqichlarga bir-biri bilan uzviy bog‘langan va bu bosqichning har bir bosqichida ish asosan o‘qituvchining rahbarligida olib boriladi.

Bolalar eng oldin tanishadigan dastlabki masalalar tabiiyki bolalar uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Yig‘indini va qoldiqni topishga doir masalalar shunday masalalar jumlasiga kiradi. Bunday masalalar bilan yechishni tanishtirishni parallel olib borish maqsadga muvofiq. Bunday masalalar quyidagi masalalar namuna bo‘ladi:

1. Rustam 2 ta qo‘g‘irchoq va 1 ta koptok rasmini chizdi. Rustam nechta o‘yinchoq rasmini chizgan?

2. Shahnoza jo‘yakdan 5 ta pomidor uzdi. Tushlikda 3 ta pomidorni yeyishdi. Nechta pomidor qoldi?

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

3. Stol ustida 5 ta katak va shuncha chiziqli daftar bor. Stol ustida hammasi bo‘lib nechta daftar bor? Sodda masalalarning qiyinligi bo‘yicha, ikkinchi turi bu sonni bir necha birlik orttirish yoki kamaytirishga doir masalalardir. Shu xildagi masalalar namunalari;

3-sinf matematika darsligidagi takrorlash qismidagi uzunlik mavzusining 5-topshiriqda quyidagi masala berilgan:

Sayyohlik yo‘nalishining birinchi qismi 247 kmga teng. Ikkinchi qismi birinchisidan 67 km uzunroq. Butun yo‘nalish uzunligini toping.

Bu masalada bizga birinchi qism uzunligi ma’lum 247 km ga teng. Ikkinchi qismini topish uchun birinchi qismiga 67 kmni qo‘shishimiz kerak. Shunda natijamiz 314 km ga teng bo‘ladi. Endi butun yo‘nalishni uzunligini topish uchun birinchi va ikkinchi qismlarni qo‘shamiz. Bunda butun yo‘nalish uzunligi 561 km kelib chiqadi. Butun yo‘nalish uzunligi 561 kmni tashkil etadi.

Yechish: 1) 247km+67km=314 km

2) 247km+314km=561km

Javob: Butun yo‘nalish uzunligi 561 km

Qiyinligi bo‘yicha masalalarning navbatdagi guruhi bu noma’lum ko‘paytuvchini topishga doir masalalar undan keyin esa noma’lum bo‘linuvchi va bo‘luvchini topishga doir masalalardan iboratdir. Bolalarga bu xil masalalar bilan bir vaqtda baho, qancha turishi va miqdori orasidagi eng sodda funksional bog‘lanishlardan foydalaniladigan masalalar beriladi.

O‘quvchilarni masala sharoitida ishlatiladigan ,,ko‘p” (ortiq), ,,kam” so‘zlari orasida amal tanlashlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun bilvosita ifodalangan masalalarni yechishni bevosita ifodalangan masalalar bilan aralashtirib olib borish kerak. Sonning ulushini va ulushiga ko‘ra sonning o‘zini topishga doir masalalar bilan 3-sinf o‘quvchilarini sonlarni karrali taqqoslashni o‘rganganlaridan keyin tanishadilar. Ulushlarga doir eng elementar masalalar qaraladi.

Gospital ta’limda matematika o‘qitishning muhim vazifasi o‘quvchilarda faol fikrlash, turmushda uchraydigan turli masalalarni yechishda qiyinchiliklarni yengish, bu masalalar yechimining ratsional yo‘llarni topish ehtiyojini vujudga keltirishdir. Matematika o‘qitishda qanday qilib to’la o‘zlashtirishga erishib, uni muvaffaqiyatli olib borish mumkin? Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘qishning dastlabki kunlarida o‘quvchilar o‘yinqaroq bo‘ladilar. Misol va masala yechishda tez charchaydilar. Shuning uchun dars davomida tevarak-atrofdagi voqea – hodisalar bolalar hayotiga oid faktlardan iborat qiziqarli o‘yinlar didaktik materiallardan o‘rinli foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ko‘rinib turibdiki, ongli o‘zlashtirish faqat o‘quvchi aqlini nazarda tutmay, balki uning irodasi tuyg’ularining ham bevosita faol ishtirokini nazarda tutadi. O‘quvchiga o‘qish jarayoniga ma’lum darajada hissiy munosabatda bo‘lish talab etiladi. Shundagina masalaning qiyinligi kamyob, uni yechish osonroq kechadi. Umuman masalalar yechishda turli usullardan foydalanish va nima ma’lum?, nima noma’lum?, qanday amal berilgan?, oxirgi amal nima? kabi savollar mazmunini ochish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Avval sodda keyin murakkabroq masalalar yechtiriladi.

Birinchi bosqich amallarini o‘rganish bilan bir vaqtda masalalar ham yechib boriladi. Bunda, ayirish amali bilan yechiladigan masalalarga alohida ahamiyat beriladi. Ya’ni sonni bir nechta birlikka orttirish, bir necha birlikka kamaytirishga oid mashqlarni bolalar puxta o‘zlashtirishi kerak. Shundagina ular darslikdagi amallarning noma’lum hadlarini topishga doir sodda masalalarni ham yecha oladilar.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

Kichik yoshdagi o‘quvchining o‘qish jarayonida faol bo‘lishi uchun: birinchidan, unga o‘qish va ishlashda mustaqil ko‘rsatish uchun keng imkoniyat berish, ikkinchidan uni samarali metodlar va usullar bilan mustaqil ishlashga o‘rgatish, uchinchidan o‘quvchining o‘zi ham masalaga ishonch bilan mustaqil yodosha olishi kerak. Yosh bolalarga matematikani o‘rgatishda ko‘rgazmali qurollardan foydalanish talab etiladi. Bola abstrak tushunchalar va qoidalar o‘zlashtira borgani sari bu ko‘rsatmalikni asta-asta kamaytira borish muhimdir. Masala yechishni yuqoridagi talablar asosida ongli va to‘g‘ri o‘zlashtirish uchun quyidagi bosqichlarga amal qilish lozim:

1. Berilgan masalaning shartini diqqat bilan o‘rganmay turib, hisoblashni boshlamaslik;

2. Masalani o‘qib chiqib, uning savoliga alohida ahamiyat berishlik;

3. Masala shartiga qaytib, uni qisqacha yozish.

Bu masalalarni yechganda har bir amal hadlarining nomini aytish va nima ma’lum, nima noma’lum, qanday topish yo‘llarini o‘quvchilar to‘la idrok qilishi lozim.

Masalalar qanday amalda bajarilishiga qarab guruh va bosqichlarga ajratiladi.

Ayirmani topishga doir masalalar.

Berilgan masalaga teskari masala tuzish.

Berilishiga ko‘ra masala tuzish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, gospital ta’limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini masalalar yechishga o‘rgatish metodikasi mavzusidagi ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matematika darslarida qo‘shish va ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallarning ma’nosini ochuvchi, amal natijasi va hadlari orasidagi bog‘lanishlarni aniqlovchi sodda va murakkab matnli masalalarni yechishga o‘rgatish usullarining qo‘llanilishi bilan chuqurroq tanishtirishga harakat qildik. Qo‘shish va ayirishga doir sodda masalalar boshlang‘ich sinflarda eng ko‘p uchraydigan masalalar turi hisoblanadi, o‘quvchilarga murakkab masalalarni yechish uchun zarur bilim va ko’nikmalarni tarkib toptirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalalar ustida doimiy ishlash jarayonida o‘quvchilarning masala ustida to‘g‘ri fikr yuritish, uni hayot bilan bog‘lash, amal komponentlari orasidagi bog‘liqlikni anglay olish ko’nikmalarini shakllantiradi. Mavzu yuzasidan olib borilgan yakunida shunday xulosaga kelindi: boshlang‘ich matematika kursida asosiy o‘rin egallagan masalalar juda muhim vazifani bajaradi. Ular o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, analiz va sintez qilish, umumlashtirish, qaralayotgan hodisalar orasidagi bog‘lanishlarni ochib berish malakasini o‘stiruvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini masalalar yechishga o‘rgatishning ahamiyati ular ustida ish olib borish metodikasiga bog‘liq. Bu o‘z navbatida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan puxta bilim, yuqori malaka va mahorat talab etadi. boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini masalalar yechishga o‘rgatish ularni matematik munosabatlar bilan tanishtirishda muhim asos vazifasini bajaradi. Masala yechish jarayonida o‘quvchilar har bir amal ma’nosini, ularni qo’llashning asosiy hollarini o‘zlashtiradilar, og‘zaki va yozma hisoblash malakalari mustahkamlanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini rivojlantirish uchun, ularda faollik va tashabbuskorlikni oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O‘quvchilarning fikrlash faoliyatlarini va nutqlarini o‘stirish uchun ularni masalalarni va ularning yechilishini tahlil qilishlariga, masalani yechishdagi har bir amalni asoslab berishga o‘rgatish muhimdir.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zR Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. Xalq so‘zi. 2012 yil 8-dekabr

2. O‘zR Birinchi Prezidenti Karimov I. A. “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent, “Sharq”, 1997 yil

3. O‘zR Birinchi Prezidenti Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2010 yil

4. O‘zR Birinchi Prezidenti Karimov I.A. “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi to‘g‘risidagi Qarori. Toshkent, 2010 yil 29 yanvar

5. Bikbayeva N. U. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996 yil

6. Jumayev M. E., Tadjieva Z. G‘. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2005 yil

7. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G‘. “Boshlang‘ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi” Toshkent, “TDPU” 2005 yil

8. Jumayev M.E. Bolalarda matematik tushunchlarni rivojlantirish nazariyasi va netodikasi (KHK uchun) Toshkent, “Ilm-Ziyo” 2005 yil

9. Jumayev M.E. Boshlang‘ich matematika nazariyasi va netodikasi (KHK uchun)Toshkent, “Arnoprint” 2005 yil

10. Toshmurodov B. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishni takomillashtirish ” Toshkent “O‘qituvchi”, 2000 yil

11. Jumayev M. E. “Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum” Toshkent “O‘qituvchi” 2004 yil12. Omonov B. “Qiziqarli matematika” Toshkent “O‘qituvchi”, 1994 yil